


# O'zbekiston va Qirg'iziston Prezidentlari muloqotni mustahkamlash yo'llarini ko'rib chiqdilar



**Bugun, 30 aprel kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Qirg'iz Respublikasi Prezidenti Sadir Japarovning telefon orqali muloqoti bo'lib o'tdi.**

Suhbatda mintaqaviy hamkorlik va ikki tomonlama kun tartibidagi dolzarb masalalar [ko'rib chiqilgan](#).

Prezidentlar Qirg'iziston-Tojikiston chegarasida yuzaga kelgan vaziyatni va uni tez fursatda hal qilishni muhokama qildilar. Qirg'iziston va Tojikiston tomonlari vaziyatni barqarorlashtirish va uning yanada keskinlashishiga yo'l qo'ymaslikka qaratilgan kelishuvlarga erishgani mamnuniyat bilan qayd etildi.

Yuzaga kelayotgan barcha bahsli masalalar ko'p asrlik do'stlik, yaxshi qo'shnicilik, ishonch va sheriklik ruhidagi muloqot asosida hal qilinishi zarur ekani ta'kidlandi.

Davlat rahbarlari joriy yil mart oyida Toshkent shahrida o'tgan sammit yakunida qabul qilingan qo'shma qaror va kelishuvlarni amalga oshirish masalalariga alohida to'xtaldilar.

Qabul qilingan majburiyatlarni so'zsiz bajarish va ustuvor loyihalarni ilgari surish maqsadida faol almashinuvlarni davom ettirish va hamkorlikni kengaytirish muhimligi qayd etildi.